



“MAROMIYLIK” LOYIHASI HAQIDAGI O‘YLARIM

Mirzayeva Dilafruz va Ashurova Dilnura

Guliston davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: dots. Sh.G.Musurmankulova

To‘y bu asrlar davomida rivojlanib, shakllanib kelgan udumdur. U uzoq va qiziqarli tarixga ega. Uning bir qancha turlari mavjud. Misol uchun beshik to‘y, xatna to‘y va nikoh to‘y. To‘ylarda azaldan milliyligimiz ufurib turgan. Buni birgina Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida keltirilgan Kumushning “qizlar bazmi” sahnasining o‘zini eslashimiz kifoya. Unda qizlarning kiyinishi, turli laparlar, yor-yor qo‘shiqlarini aytishi milliyligimizni rivojlantirishga o‘z xissalarini qo‘shishgan. Bundan tashqari, beshik va xatna to‘ylarda ham momolarimiz turli sochqilar va sovg‘a-salomlar ulashishgan. Ammo bugungi kunga kelib, asrlar davomida milliyligimizni anglatib turgan to‘ylar o‘zining shakl va mazmunini yo‘qotib, kim o‘zar o‘yiniga aylanib bormoqda. Hozirda bu dabdababozliklarni hech kim fojia sifatida qabul qilmayapti, balki bularga sababchi bo‘layotgan insonlarni saxiylik sohiblari va karam egalari deb atashmoqda. Holbuki, karam va saxovat egalari pullarini isrof qilmay farzandlari va millat uchun kitoblar sotib olib, ularning ziyoli bo‘lishiga zamin yaratadi. Isrofgarchilik (arabcha sarf qilish) – o‘rinsiz yoki ortiqcha sarf-xarajat qilish, nobudgarchilikka yo‘l qo‘yishni ifoda etadigan tushuncha. Hazrat Alisher Navoiy esa “Isrof saxo emas va iltifotni ma’no ahli saxovat demas”, ya’ni, “Isrof qilish – saxiylikdan emas, aqlli, dono odamlar noo‘rin sarf-xarajatni saxovat demas”, deganlar. Yana bir ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy esa iqtisod, tejamkorlik borasida so‘z yuritib, uning aksi sifatida isrofnı ta’riflaydi. “Iqtisod deb, pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o‘rni kelganda so‘mni ayamas. Saxovatning ziddi baxillik o‘ldig‘i kabi iqtisodning ziddi isrofdur. Alloh taolo isrof qilguvchilarni suymas”, deganlar. Bugun aytilgan fikrlar naqadar to‘g‘ri va o‘z qiymatini tobora orttirib borayotganligining guvohi bo‘lib turibmiz. O‘rnak tariqasida Behbudiynıng hayotini oladigan bo‘lsak: u o‘g‘lining xatna to‘yiga ko‘p pul sarflamasdan, oddiy va sodda qilib o‘tkazgan. Qolgan pulga mahalla bolalari uchun kutubxona ochgan. Ammo hozirgi kunda bunday bag‘ri kenglik qiladigan insonlarni topish qiyin. Xalq orzu-xavasları, ya’ni bir kunlik to‘y uchun insonlarga ko‘z-ko‘z qilish maqsadida yillar davomida yig‘gan bor budini sarflashadi, vaholanki buning ustiga qarz va kreditlar olib kamchiliklarini yopishadi. Ammo vaqt o‘tib qarzlarini qanday to‘lash kerakligini o‘ylashmaydi. To‘ylardagi dabdababozlikka misol qilib birgina dasturxonni olsak, u yerdagi ko‘p mahsulotlar iste’mol qilinmasdan qoladigan narsalar, ya’ni ortiqcha pul sarflab ko‘p qarz olishga sabab bo‘luvchi mahsulotlardir. Bundan tashqari to‘y davomida mehmonlarga beriladigan sovg‘a-salomlar ham





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

isrofgarchilikdir. Kundan kunga ortib borayotgan dabdababozliklarning oldini olish uchun “Maromiylik” loyihasi ishlab chiqildi. Bunda to‘ylar va oilaviy marosimlar, u yerga chaqiriladigan mehmonlar soni va ortiqcha sarf-xarajatlarga chek qo‘yildi.

Bu qaror 2025-yil 11-iyuldan boshlab ishga tushdi. Biz yoshlar bu loyihani qo‘llab-quvvatlaymiz, chunki bunday islohotlar va o‘zgarishlar biz uchun foydalidir. Yoshlarga bunday dabdababozlik emas, aksincha o‘qish uchun, ilm olish uchun, dunyo kezib O‘zbekistonga foydamiz tegadigan inson bo‘lishimiz uchun ajratilgan sarmoya va sharoitlar muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘tkan kunlar / Abdulla Qodiriy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.
2. Alisher Navoiy. Asarlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar va ma’rifiy faoliyati haqidagi manbalar.
5. O‘zbekiston Respublikasida oilaviy marosimlarni tartibga solish va isrofgarchilikning oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar (2025-yil 11-iyuldan kuchga kirgan qaror).

